

Uilyam Folkner. Emili uchun atirgul (hikoya)



Miss Emili Grirson o'lganda, uni ko'mish uchun butun shahar yig'ildi: erkaklar qulagan ma'budga e'zoz-ikrom yuzasidan, xotinlar esa kamida o'n yil inson qadami yetmagan xonadonni o'z ko'zlari bilan ko'rgani ichlari oshiqib keldilar, chindan ham bu eshikka ham bog'bon, ham oshpaz bo'lgan qari xizmatkordan boshqa hech kim yaqin yo'lamasdi. Sinchkor qilib qurilgan hayhotday chorsi uyning suvoqlari ko'chganiga ne zamonlar bo'lgan, yetmishinchi yillarning havoyi alfozida gumbazchalar, nayzador qubbalar, jimjimador balkonlar bilan bezatilgan bu imorat shahrimizning bir mahallar oqsuyaklar mahallasi deb sanalgan ko'chasida joylashgan edi. Zamonasi kelib garajlar va paxta yigiruvchi zavodlar bu yerdan eng kibor xonadonlarni ham qisib chiqardi va faqat Grirsonlarning ko'hna tarzli imoratigina xuddi bellashsang, bellashaman deganday paxta ortilgan furgonlar hamda benzin quyadigan stantsiyalar uzra kibr va qiyqlik ila kekkayib turardi. Mana endi qazo soati yetib miss Emili ham qarag'ay butalari o'sib yotgan shahar mozoridagi o'z joyiga ravona bo'ldi, bu mozorlikda hamon Jefferson yaqinidagi jangda halok bo'lgan federal qo'shinlar va konfederat soldatlarining (ular ichida nomsiz qabrlar ham ko'p) so'nggi oromgohlari saqlanib kelar edi. Miss Emili hayot ekan, shahar o'z ustiga olgan qadim an'ana, qarzdorlik va o'ziga xos ma'naviy burchning mujassam timsoli edi, bu narsa Jefersonning meri polkovnik Sartoris 1894 yilda (bu — negr ayollarga shahar ko'chalarida etaksiz yurishni man qilgan o'sha Sartoris edi) qizning otasi o'lgandan so'ng darhol uni soliq to'lashdan bir umrga ozod qilgandan beri davom etib kelardi. Bu miss Emiliga xayr-ehson bo'lib tuyulmadi. Polkovnik Sartoris qizning otasi bir zamonlar shaharga pul qarz berib turgan edi, degan chigal bir bahonani o'ylab topdi, o'sha qarzni shunday yo'l bilan qaytarish osonroq ko'char ekan. Bunday narsani polkovnik Sartoris avlodiga mansub odamgina to'qib chiqarishi mumkin edi. Biroq shahar munitsipalitetiga boshqa bir davrda tarbiyalangan, zamonaviyroq g'oyalar egasi bo'lmish yangi odamlar nasllari kelishganda, ushbu ahdnoma ma'lum bir noroziliklarga sababchi bo'la boshladi. Yangi yilning birinchi kuni miss Emiliga soliq to'lash haqida bayonot jo'natildi. Fevral kirdi, lekin javob yo'q edi. Unga o'zingizga qulay bo'lgan vaqtda sherifning idorasiga kelib uchrashing degan rasmiy xat yozildi. Yana bir hafta o'tgach, merning o'zi unga xat yozib, yo men huzuringizga boray va yo sizga avtomobil yuboray o'zingiz keling, deb xabar qildi va qadimiy qog'oz varag'iga rangi o'chib ketgan siyoh bilan benihoya nafis husnixatda yozilgan javob oldi. Xatda ma'lum qilinishicha, miss Emili uzoq vaqtlardan beri eshikka chiqmas ekan; xatga hech qanday izohsiz soliq haqidagi bayonot ham qo'shib jo'natilgan edi. Munitsipalitet maxsus majlis chaqirdi va miss Emili huzuriga delegatsiya jo'natildi.

Delegatsiya sakkiz-o'n yillardan beri tashqaridan keluvchilarga tim-tirs berkilgan eshikni taqillatdi. Eshik chinniga gul solish darslari tugagandan beri ochilmagan edi. Qari negr ularni nim qorong'i pastki zalga olib kirdi, bu yerdan yana ham qorong'iroq bo'lgan yuqoriga pillapoya bilan ko'tarilar edi. Uvrin-to'da va chang hidi anqirdi, havo chirik va dim edi. Negr ularni vazmin charm mebellar qo'yilgan mehmonxonaga olib kirdi. U derazalardan birining to'sig'ini ochgan edi, charmlarning yorilib ketgani ko'zga chalindi, xonaga kirib kelgan quyoshning bir tolim nuri o'rindiqlar uzra ko'tarilgan to'zon izdihomlarini yoritdi. Kamin oldidagi unniqqan tilla suvi yuritilgan molbertda miss Emili otasining pastelda ishlangan surati turardi.

Ular boshdan-oyoq qora kiyingan, tilla zanjir osgan, zanjiri beligacha tushib, so'ng keng belbog' ichra g'oyib bo'lgan, past bo'yli, to'lachagina xotin qora og'ochdan ishlangan, dastasi xira oltindan qubbalangan asoga tayanib kirib kelganda, o'rinlaridan turdilar. U bo'ychan, suyagi nozik edi, shuning uchun ham boshqa paytda to'lalik bo'lib ko'rinadigan hol hozir xomsemizlik kabi tuyular edi. Uning vujudi xuddi uzoq vaqt botqoqlik tagida yotganday shalvaygan va shishganga o'xshardi. Murdanikiday tussiz betining semiz o'rmalarida xamir bo'lagiga tiqib qo'yilgan ikki bo'lak ko'mirday ko'zlari biqingan edi. Mushriflar nega kelganliklarini bayon qilisharkan, bu ko'zlar ularni birma-bir suzib chiqdi. Ularga o'tiringlar ham demadi. U eshikda turib jimgina quloq soldi, gapirayotgan kishi tutilib jim bo'lib qoldi. Shunda hammalari oltin zanjirning uchida berkingan soatning chiqillab yurayotganligini baralla eshitdilar. U sovuq va quruq ohangda dedi: «Men Jeffersonda soliq to'lamayman. Menga buni polkovnik Sartoris tushuntirgan. Ichingizdan istagan kishi agar qiziqsa, shahar qog'ozlariga qarab ko'rsin».

— Biz shunday qildik, miss. Biz shahar idorasidanmiz. Nahot siz sherif imzo chekkan xatimizni olmagan bo'lsangiz?

— Ha, bir nima kelganday bo'luvdi, — dedi miss Emili. — Demak, u o'zini sherif deb hisoblar ekan-da... Lekin men Jeffersonda soliq to'lamayman.

— Shahar qog'ozlarida hech qayerda bunday eslatma yo'q. Biz aftidan...

— Polkovnik Sartorisga uchrashinglar. Mening Jeffersondan hech qanday qarzim yo'q.

— Lekin miss Emili...

— Sartoris bilan gaplashib ko'ringlar. (Polkovnik Sartorisning o'lganiga chamasi o'n yilcha bo'lib qolgan edi.)

Mening Jeffersondan tsech qanday qarzim yo'q. Tob! — Eshikda negr paydo bo'ldi.

— Jentlmenlarni kuzatib qo'y.

II

Xullas kalom, u g'alaba qildi, ularning piyodalari va otliqlarini butkul toru mor etdi. O'ttiz yil burun hid xususida gap chiqqanda ularning otalari ustidan u xuddi mana shunday g'alaba qozongandi. Bu otasi vafot etgach, ikki yildan so'ng ro'y bergandi, o'shanda biz hammamiz endi to'y bo'ladi deb turganimizda, qallig'i birdan tashlab ketib qolgan edi. Otasining o'limidan so'ng u eshikka kamdan kam chiqar, qallig'i qochib ketgach, u sira qorasini ko'rsatmay qo'ydi. Shahar xonimlari bir necha marotaba miss Emilini ko'rmoqchi bo'lib urindilar, lekin ularni qabul qilmadi.

Xonadonda hali hayot nishonlari so‘nmaganligini negr — u paytlar yosh yigit edi — onda-sonda qo‘lida savat bilan mayda-chuyda xarid qilgani eshikka chiqqanidagina bilsa bo‘lardi.

— Nima deganingizda ham erkak — erkak-da, tovoq-qoshiqni eplay olmaydi, — deyishardi xonimlar, shuning uchun ham, hid tarqalganda, hech kim bundan ajablanmadi. U shu dag‘al va jo‘n kishilar dunyosi bilan ular uzra baland qad ko‘targan ulug‘vor Grirsonlarni bog‘lab turgan misoli bir halqa edi. Biroq miss Emilining qo‘shnisi shahar meri, sakson yashar sudya Stivensga shikoyat qildi.

— Mendan nima istaysiz, xonim? — deb o‘smoqchiladi sudya.

— Unga ayting, bir chorasini ko‘rsin.

— Xo‘sh, bunga hech qanday zarurat yo‘q, — dedi sudya Stivens. — Negr xizmatkori hovlida ilonmi yo kalamushmi o‘ldirgan bo‘lsa kerak-da. Men u bilan gaplashib ko‘raman.

Ertasiga yana ikki kishidan shikoyat tushdi — ularning biri erkak edi, u qo‘shnisidan butunlay farqli o‘laroq g‘oyatda ehtiyotkorlik va nazokat bilan so‘yladi.

— Bir narsa qilmasa sira bo‘lmaydi, sudya. Men o‘lsam ham miss Emilining tinchini buzishni istamasdim, lekin nimadir qilish kerak.

Kechqurun shahar kengashi chaqirildi: uchta oppoq soqolli mo‘ysafid va yana yoshroq birovi — kelajak nasllar darakchisi.

— Bosh qotirib o‘tiradigan joyi yo‘q, — dedi u. — Unga xat yozib yuborish kerak, uyini tartibga keltirib qo‘ysin. Bir ozgina fursat beraylik, agar shunda ham nafi tegmasa...

— E, yo‘q, bo‘lmaydi, ser, — uning so‘zini kesdi sudya. — Kim ledining yuziga qarab turib, sasib ketyapti deydi.

Shunday qilib, ertasi kuni kechqurun to‘rt erkak miss Emilining ko‘k buta devorini oshib o‘tdilar-da, xuddi qaroqchilarday pusib biqingancha hovlini charx urib aylanib, barcha teshik-yoriqlarni iskab ko‘rishdi, orqadagi birisi esa yelkasiga osib olgan qopdan nimanidir olib don sochganday sochdi. Uyning yerto‘lasiga, hovli yuzasidagi barcha imoratlarning atrofiga ular xorli ohak sepib chiqdilar. So‘ng buta devordan oshib ketayotgan chog‘larida shu paytgacha qorayib turgan deraza oynasiga birdan yorug‘ tushib, unda sham qotgan ma‘bud kabi miss Emilining qorasi ko‘rindi. Ular bu yerdan asta pusib o‘tib, ko‘cha yoqalarida o‘sgan daraxtlar qorasida ko‘zdan yo‘qoldilar. Bir-ikki hafta o‘tib, hid butunlay bilinmay ketdi. Ana o‘shandan boshlab, odamlar miss Emiliga yuraklari achib qaraydigan bo‘lib qoldilar. Uning xolasi Uayet kampir oxiri borib miyasini yeb qo‘yganligini eslashgan odamlar, nihoyat, bu Grirsonlarning o‘zlari doim takabbur bo‘lganlar, degan xulosaga keldilar. Har qalay, qarindosh-urug‘larining nazarida miss Emiliga teng keladigan yigit bizning shaharda topilmas edi. Miss Emili bilan uning otasi eshik oldiga qanday qilib chiqib turganlari hali hozirgacha ham ko‘z o‘ngimizdan ketmaydi. Otasi oldinda oyoqlarini kergancha, qo‘lida qamchisini mahkam qisib turadi, uning picha orqasida — lang ochiq eshikning o‘rtasida oppoq kiyingan miss Emilining nozikkina qomati. Shuning uchun ham, qizning yoshi o‘ttizga chiqqanda va u hamon turmush qurmaganida, butun shahar zaharxanda qildi desak bo‘lmas-ku, lekin harholda, undan o‘chini olib alamidan chiqqanday bo‘ldi. Agar, kim bo‘lmasin, birov unga talabgor bo‘lganda edi, hatto telba xolasidan ham hayiqib

o'tirmay, darrov ko'nib qo'ya qolardi-da, deb o'ylar edik biz. Otasi o'lgandan keyin unga uydan boshqa hech narsa meros qoldirmagani ma'lum bo'ldi, yashirib nima qildik, bundan ko'plar xursand ham bo'ldi. Ana endi u haqda g'amxo'rlik qilish mumkin degan qarorga keldik biz. Miss Emili ham muhtojlik va kimsasizlikda yashab ko'rsa, doim uchini uchiga yetkazolmay fig'oni ko'kka chiqib, mudom qo'rqinch ichida kun kechirish nima ekanligini biladi. Ota o'limining ertasiga ertalab shaharning barcha xonimlari miss Emiliga hamdardlik bildirish, madad berish uchun odatga binoan jam bo'ldilar. Ularni odatdagicha kiyingan holda eshikda qarshi oldi. Ko'zlarida bir qatra yosh yo'q edi. Otam o'lgani yo'q, der edi u yakkash, ruhoniylar va doktorlarning murdani olishga shuncha urinishlariga qaramay, uch kungacha u shu gapni takrorlashdan qolmadi. Qonunda ko'rsatilgani bo'yicha chora ko'rmasak bo'lmaydi deb turganlarida, u nihoyat, rozi bo'ldi va murdani tezlik bilan dafn qildilar. O'shanda biz uni hali telba deb hisoblamasdik. Miss Emili bekorga shunday qilayotgani yo'q, deb mulohaza qilar edik biz, axir uning otasi qanchadan qancha yigitlarni eshigidan nari quvib yubordi, odam kelmaydigan qilib qo'ydi, endi esa qiz oxirgi bor narsasini qo'ldan chiqarmaslikka urinardi, odamlar odatan shunday qiladilar-ku.

III

Keyin u uzoq betob bo'lib yotdi. Uni yana ko'rganimizda, sochi kalta qirqtirilgan va shundan yosh qizchalarga va tag'in jindakkina cherkovlarga qo'yiladigan ma'yus va o'ychan farishtalarga o'xshab ketardi. Xuddi ana shu paytlarga kelib, shahar hukumati ko'chalarga yo'lka yotqizishga qaror qildi, ishga odamlar yollandi va yoz kunlarida (bu paytga kelib uning otasi o'lgan edi) ishlar qizib ketdi. Shaharga Gomer Berron degan sochlari qora, qaddiqomati yirik, ish deganni chaynab tashlaydigan, ovozi o'tkir va o'ktam, yuzi oftobda qoraygan, ko'zlari shishaday tiniq — haqiqiy yanki boshchiligida negrlari, ulov hamda asbob-uskunalari bilan quruvchilar brigadasi keldi. Bolalar Berronning ketidan to'dalashib chopib yurishar, uning negrlarni qora terga tushirib ishlatishi, ularning qo'shiq aytib og'ir cho'kichlarni bir maromda ko'tarib tashlashlarini zavqlanib tomosha qilishardi. Tezda Gomer Berron butun shahar bilan apoq-chapoq bo'lib ketdi. Ko'chaning biron yerida odamlar to'planishib, xaxolab kulashayotgan bo'lsa, bilaverinki, demak, Berron ham shu yerda edi. Ko'p o'tmay uni va miss Emilini yakshanba kunlari g'ildiraklari sariq, yollab olingan bir juft to'riq ot qo'shilgan usti ochiq ikki o'rinli kolyaskada birgalikda sayr qilib yurishganini uchrata boshladilar.

Boshida biz hammamiz qanday bo'lmasin miss Grirson yana hayotga qiziqib qaray boshlaganidan quvondik, buning ustiga shahar xotinlari: «E, qo'yinglar, axir shu Grirsonlar shimoldan kelgan va buning ustiga yollanib ishlaydigan odamni nazar-pisand qilisharmidi?», deganlari degan edi. Lekin yoshlari ulug'roqlar boshqacha o'ylashardi: chinakam ledi hatto boshiga kulfat tushganda ham or-nomus tuzuklaridan chiqmasligi kerak, deb hisoblashardi ular, lekin bu so'zlarni og'iz ochib aytishmasdi. Ular oddiygina qilib: «Sho'rlik Emili. Qarindosh-urug'lari unga qarashsa bo'lardi», deb qo'yishardi. Qizning rosti bilan ham Alabamada qarindosh-urug'lari bor bo'lib, biroq otasi ular bilan aqldan ozgan Uayet kampirning mulkini

talashib, shundan xonadonlar yuz koʻrmas boʻlib ketgan edilar. Cholni koʻmish marosimiga Alabamadan hech kim kelgani ham yoʻq. «Shoʻrlik Emili» degan soʻzlar kimningdir ogʻzidan chiqishi bilanoq darhol turli mish-mishlar oʻrmlab qoldi. «U yerda bir nima bor deb oʻylaysizmi?», deb soʻrardik biz bir-birimizdan. «Albatta-da, boshqacha boʻlishi mumkinmi?» Shunday qilib, uning orqasidan, yakshanbaning koʻzni qamashtiradigan oftobidan toʻsib yopilgan deraza tavaqalari orqasidan, koʻchadan oʻtib borayotgan quruvchilar bilan izma-iz ivirshivir qoʻzgʻaldi: «Shoʻrlik Emili». Garchi hamma miss Emili oʻzini tiyib yura olmadi, deb hisoblasa-da, qizning oʻzi hamon boshini magʻrur koʻtarib yurar, xuddi odamlarning koyish, gap-soʻzlari unga oʻzining haqligi va yagonaligiga ishonch-eʼtimodini orttirayotganday, Grirsonlar naslining soʻnggi vakili shaʼn-shukuhini himoya qilib, har qachongidan koʻra ham kibriyo edi. U dorixonadan kalamush dori, margimush sotib olayotganda ham oʻzini ana shunday tutdi. «Shoʻrlik Emili» degan soʻzlar birinchi marotaba aytilganiga ham bir yildan oshib, nihoyat uning holidan xabar olgani ikki xolavachchasi kelishdi.

— Menga zahar kerak, — dedi u.
 — Xoʻp boʻladi, miss Emili, lekin qanaqasidan boʻlsin? Kalamushga boʻlsa kerak-da?
 — Men sizga tavs...
 — Menga eng yaxshisi kerak — nima deb atalishi bilan ishim yoʻq. Aptekachi bir necha xil zaharlarni sanab chiqdi.
 — Ular filni ham qulatadi. Lekin chamasi, sizga yaxshisi...
 — Margimush, — dedi miss Emili, — yaxshi zaharmi?
 — Margimush? Ha, mem. Lekin sizga...
 — Menga margimush kerak.

Aptekachi unga boshini koʻtarib qaradi, u zarracha oʻzgargani yoʻq; uning shamday qotgan chehrasi polk tugʻiday tahdid elardi.
 — Mayli boʻlmasam, — dedi aptekachi. — Agar sizga xuddi shu zahar kerak boʻlsa. Lekin qonun boʻyicha, siz uni nimaga ishlatmoqchi ekanligingizni aytishingiz kerak. Miss Emili boshini picha orqaga tashlaganicha uning koʻzlariga tik qarab turar, va nihoyat, aptekachi dosh berolmay yuzini oʻgirdi-da, xonadan chiqib ketdi. U boshqa qaytib kelmadi, margimush solingan qogʻozni yugurdak negr boladan berib yubordi. Miss Emili uyga kirib qogʻozni ochdi, kalla suyagining rasmi solingan qutichaning tagida: «Kalamushlarga qarshi» degan soʻzlarni oʻqidi.

IV

«U oʻzini oʻzi oʻldiradi», derdik biz ertasiga, shunday qilsa oʻziga yaxshi boʻladi, degan xulosaga keldi hamma. Ular Gomer Berron bilan endi-endi uchrashib yurganlarida, unga turmushga chiqishiga hammaning ishonchi komil edi. Bugʻular klubida yoshlar bilan chaqchaqlashib turishni yoqtiradigan Gomer atrofdagilarga oʻzining boʻydoq yashash tarafdori ekanligi haqida ogʻiz koʻpirtirganligini eshitib, «qiz uni egib oladi», derdik biz keyinroq. Keyin deraza tavaqalari tushirilgach, yakshanba kunlari oftobda yaraqlab turgan kolyaskada yonlarimizdan oʻtib borisharkan, biz: «Shoʻrlik Emili!», deganimiz degan edi. Kolyaskada miss Emilining boshi tik koʻtarilgan, Gomer Berron esa shlyapasini boshiga boplab qoʻnqaytirib, ogʻzidan sigara tushmay, sariq qoʻlqop kiygan qoʻllarida jilov hamda qamchinni mahkam ushlab borardi.

Shunda ba'zi bir shahar xonimlari ular yoshlarga yomon o'rnak ko'rsatishyapti va shahrimizning obro'sini yerga urishyapti, deb gap-so'z qila boshlashdi. Erkaklar bu ishga aralashmaslikni ma'qul ko'rdilar, lekin ularning xotinlari baptistlar ruhoniysini miss Emilini borib ko'rishga ko'ndirdilar, miss Emili barcha qavmu qarindoshlari kabi yepiskop cherkoviga mansub edi. Ruhoniy bu uchrashuv qanday o'tganligi to'g'risida hech kimsaga hech narsa demadi, lekin yana bir marta borishdan qat'iy bosh tortdi. Kelasi yakshanba kuni ular yana kolyaskada sayrga chiqdilar, yana bir kun o'tgandan so'ng ruhoniyning xotini miss Emilining Alabamadagi qarindoshlariga xat jo'natdi. Nihoyat, uning uyiga odamlar kelishdi va biz buyog'i nima bo'larkin deb kuta boshladik. Avvaliga hammasi ilgarigiday davom etaverdi. Keyin biz ular baribir turmush qursalar kerak, deb yurdik. Miss Emili zargar qoshiga borganmish, unga erkaklarning kumushdan ishlangan anjomlarini buyurganmish, anjomlarning har biriga G. B. degan harflar o'yilib yozilarmish degan gaplar tarqaldi. Ikki kun o'tgach, u erkaklarning kiyim-kechaklarini, hatto ichki ko'ylakkacha qo'shib xarid qilganligini eshitdik. Hammamiz yengil nafas oldik: «Ular uylanishibdilar». Chindan, hammamiz yurak-yurakdan xursand edik. Biz yana shunga ham xursand edikki, Emilining har ikkala xolavachchasi uning o'zidan ham o'tib tushgan Grirsonlardan ekan.

Shunday ekan, shahar ko'chalaridagi ishlar nihoyasiga yetgach, bir oz vaqt o'tib Gomer Berronning yo'q bo'lib qolganligidan hech kim ajablanib o'tirmadi. To'y haqida hammaga eshittirib e'lon qilinmagani bir oz shashtimizni tushirdi, lekin Gomer miss Emilining kelishiga hammasini hozirlab qo'yish uchun ketgan bo'lsa kerak yoki bo'lmasa, qizga xolavachchalaridan qutulishga imkon tug'dirgandir (xolavachchalarga qarshi butun boshli fitna tuzilgan, hammamiz miss Emili tomonida edik), degan fikrda edik. Rostdan ham, yana bir hafta o'tib, uning qarindoshlari jo'nab ketishdi. Hamma kutgandek, uch kundan so'ng Gomer Berron yana shahrimizda paydo bo'lib qoldi: shom qorong'isi tushganda, negr xizmatkor orqa eshikni ochib uni ichkariga qo'yganligini miss Emilining ayol qo'shnisi ko'rgan ekan.

O'shandan beri Gomer Berronni boshqa hech kim ko'rmadi. Miss Emili ham, har qalay, bir oz vaqt o'tguncha butunlay ko'rinmay qoldi. Negr xizmatkor maydachuyda olgani savat ko'tarib chiqib qolar, so'ng yana qaytib kirib ketar, lekin katta eshik doim tim-tirs berk edi. Ba'zan derazadan miss Emilining qorasi ko'zga chalinar (kechasi uning hovlisiga ohak sepib chiqishganda shunday bo'lgan edi), lekin yarim yilgacha u ko'chaga qadam bosmadi. Biz buni ham tushunsa bo'ladi deb hisoblardik — chunki uning ayollik qismatining ochilib ketishiga shunchalar qarshilik qilgan otasining ruhi, aftidan, haddan tashqari qudratli va yashovchan bo'lsa kerak edi.

Miss Emili, yana qaytib ko'rganimizda, biroz to'lishgan, sochlariga esa oq oralagan edi. Yillar o'tgan sayin oqlari ko'payib, nihoyat, ular murch bilan tuz aralashgan tusga kirdi. G'ayratli, ishga chanqoq erkaklarning sochlari odatda shunday oqaradi. Miss Emili yetmish to'rtga kirib dunyodan ko'z yumguncha uning sochlari shundayligicha qoldi.

Shu vaqt ichida xonadonning katta eshigi bir marta ham ochilmadi. Miss Emili chinniga gul solishdan bolalarga dars bergan olti-etti yil (o'shanda u qirqlarga borib

qolgandi) bu hisobga kirmaydi. U pastki qavatdagi xonalardan birini darsxonaga aylantirdi, polkovnik Sartoris qurdoshlarining qizchalari va nabiralari uning oldiga qatnay boshladilar, qatnaganda ham, xuddi yakshanba kunlari yigirma besh tsent tanga xayr-ehson uchun olib cherkovga kelganday bir kayfiyat va muntazamlik bilan qatnardilar.

Lekin mana shaharning qalbi va vujudiga aylangan yangi nasl yuzaga chiqdi. Miss Emilining shogirdlari katta bo'lib voyaga yetishdi va uning qoshiga bolalarini yubormay qo'yishdi, bo'yoqlar, cho'tkalar, jurnallardan qirqib olingan suratlar shu qadar jonlariga tegib ketgan edi. Katta eshik so'nggi shogird ortidan gursillab yopildi yu boshqa hech qachon ochilmadi. Shaharda tekin pochta xizmati yo'lga qo'yilganda yolg'iz miss Emili uyiga tunuka taxtacha va pochta qutisi qoqib qo'yishni man qildi. Uni ko'ndirmoqchi bo'lib urindilar, lekin u hech kimning gapini eshitishni istamadi.

Kun ketidan kun, oy ketidan oy, yil ketidan yil o'tar, biz ertalablari oziq-ovqat xarid qilgani chiqqanda negrning sochlari tobora oqarib, bellari tobora bukilib borayotganligini ko'rardik. Har dekabr oyi kelganda, miss Emili soliq to'lash haqida bayonot olar va har safar bir hafta o'tgach, uni ochmasdan orqasiga qaytarib jo'natar edi. Onda-sonda uni pastki qavatdagi xonalardan birining derazasida ko'rib qolardilar — chamasi yuqori qavat xonalari hamon berk edi — u qotib turar, misoli toshdan yo'nib ishlangan ma'budga o'xshardi. U bizlardan birontamizni ko'rarmidi-yo'qmi, aniq bilib bo'lmasdi. Nasllardan nasllarga xuddi mana shu alfozda o'tib borar edi bu hammamizga yaqin va ajoyib, bezabon, o'q o'tmas, suv teshmas, qaytmas va tonmas ayol. Shunday qilib, u olamdan o'tdi. Qarib-churib puturdan ketgan negr xizmatkordan boshqa qaraydigan odami bo'lmay, chang-g'ubor va qorong'ilik qoplagan uyda kasallanib yotib qoldi. Hatto shaharda hech kimsa uning kasal yotganligini bilmas, biz qari xizmatkordan so'rab-netib turishlikni allaqachonlar yig'ishtirib qo'ygandik. Xizmatkor hech kim va hatto bekasi bilan gaplashmas, xuddi uzoq zamonlar ishlatilmay yotganidan zanglaganday tovushi xirqirab chiqadigan bo'lib qolgandi. U pastki qavatning xonalaridan birida yong'oqdan ishlangan, atrofi parda bilan to'silgan kattakon karavotda jon berdi. Uning oppoq oqargan boshi quyosh nurlarini sira ko'rmagan vaqtning zabtiga dosh berolmay sarg'aygan va mog'or bosgan bolishga sokin cho'kkan edi.

V

Birinchi bo'lib kelgan xotinlarni negr eshikda kutib oldi va ichkariga olib kirdi. Bo'g'iq shivir-shivir shildiradi, nigohlar olazarak chopdilar. Negr esa shu damdayoq g'oyib bo'ldi. U uyning barcha xonalaridan o'tib borib, orqa zinadan pastga tushdida, shuning bilan boshqa hech kim hech qachon uni ko'rmadi. Ko'p mahtal qilmay tezda uning ikki qarindoshi ham yetib kelishdi va ertasiga butun shahar miss Emilini ko'mish marosimiga yig'ildi. U gullarga ko'milib yotar, bosh tomonida otasining pastelda ishlangan teran o'yga botgan surati osig'liq turar, atrofda esa shaqar xonimlari g'amboda bir qiyofada g'uj bo'lib, pichir-pichir qilishardi. Eshik oldida va hovlida mo'ysafid qariyalar o'tirishar, ularning ayrimlari konfederat qo'shinlarining artib-tozalangan liboslarini kiyib olishgan, ularning xotiralarida miss Emili xuddi ularga tengqurday gavdalanar, nazarlarida ular miss Emili bilan

necha-necha bor raqsga tushganday va hattoki necha-necha marotalab uning qo‘lini so‘raganday bo‘lardilar. Barcha keksaygan odamlar kabi ular voqealar hamda sanalarni chalkashtirib aytishar, o‘tmish ular nazarida olis-olislarida yo‘qolib ketadigan arava izimas, keng, abadiyan yam-yashil o‘tloq edi, bu o‘tloq bizning kunlarimizdan faqat so‘nggi o‘n yil ichida tor jarlik bilangina ajralgan edi. Uyning tepa qavatida qirq yildan beri inson qadami tegmagan, eshigi qulflab tashlangan xona borligi hozir ma‘lum bo‘lgan edi. Miss Emilining jasad i appon-sappon o‘z qabriga qo‘yilgandan so‘nggina bu xonani buzib ochdilar. Xuddi yangi kelin-kuyovlar turadiganday qilib yasatilgan va jihozlangan xonaning uzoq yillar o‘tirib qolgan changi qattiq harakat tufayli birdan to‘zib ketdi. Uy ichi achimsiq go‘r hidiga to‘lgandi. Rangi o‘chib ketgan pushti kimxob choyshab qatlari, chiroqlarning pushti soyabonlari, billur shishachalar va kumushdan ishlangan, soch-soqol anjomlari sochilgan mo‘jaz stolchalar — hammayoq gardga qoplangandi. Kumush buyumlar shunchalar ham xiralashib ketgandiki, endi ularga o‘yib yozilgan bosh harflarni ko‘rib bo‘lmasdi. Shu yerning o‘zida xuddi hozirgina yechilganday yoqa va galstuk yotardi, ularni yerdan ko‘tarib ko‘rganlarida chang pardasi ichra yarim gardish aniq iz qoldi. Stulning suyanchig‘ida tekislab tashlab qo‘yilgan kostyum osilib turardi. Polda botinkalar, ularning yonida paypoqlar yotardi. Er kishining o‘zi esa karavotda edi. Jag‘i irshayib ochilib qolgan qo‘rqinchli bosh suyak chanog‘iga qaragancha anchagina jim turib qoldik. Murda xuddi kimnidir quchoqlaganday bo‘lib yotardi, lekin muhabbatdan boqiyroq uzun uyqu vaqt o‘tishi bilan uning barcha a‘jubalıkları va nayranglarini tekislab, undan ma‘shuqasini tortib olganday edi. Uning suyaklari uzra tungi ko‘ylakning churik parchalari laxtalanib yotardi. O‘lik xuddi karavotga singib ketganday edi. Losh ham, uning yonidagi bolish ham bir tekis xoki turobga botgandi. Va faqat shu ondagina biz ikkinchi yosti qda yengilgina bosh izi qolganligini ko‘rdik. Ichimizdan kimdir qo‘li bilan izni paypasladi va oldinga enkayib, ko‘zga tashlanmas to‘zonning quruq va achchiq hidini dimoqqa tortgancha biz bo‘zrang po‘lat tusidagi uzundan uzun soch tolasiga ko‘zimiz tushdi.



